

MAKTABGACHA YOSH DAVRIDAGI BOLALARNING O‘YIN FAOLIYATI ORQALI BILISH JARAYONLARI RIVOJLANISHI.

**ADPI Pedagogika va psixologiya kafedrası o‘qıtuvchisi
Abdumajidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi
ADPI talabasi Xusanova Mashxura Erkinjon qizi,
Islomova Ozoda Sherali qizi**

Annotatsiya: Mazkur maqola maktabgacha yosh davridagi bolalarning o‘yin faoliyati orqali bilish jarayonlarining rivojlanishi haqida fikr yuritilgan. Turli xil chet el olimlarining bu mavzuga bo‘lgan turlicha qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh davri, o‘yin faoliyati, bilish jarayonlari, rolli o‘yinlar, predmetli o‘yinlar, qoidali o‘yinlar, sujetli o‘yinlar.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarda o‘yin yetakchi faoliyat sanaladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar asosan predmetlar, turli xil o‘yinchoqlar bilan o‘ynaydilar. O‘zlarining predmetli va konstruktorli o‘yinlarida idrok, xotira, tasavvur, tafakkur jarayonlarini, shuningdek, o‘z harakat qobiliyatlarini takomillashtirib boradilar. Turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi cheklangan kichik yoshdagi bolalar (ba‘zan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida faqatgina ayrim odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. Birinchidan, bolalarning o‘yin faoliyati qandaydir moddiy mashg‘uloti ishlab chiqarishga qaratilgan faoliyat emas. Shuning uchun bolalarni o‘yinga undovchi sabab (motiv) kelib chiqadigan natija bilan emas, balki shu o‘yin jarayonidagi turli harakatlarning mazmuniga bog‘liqdir; Ikkinchidan, bolalar o‘yin jarayonida o‘z ixtiyorlaridagi narsalarni, o‘zlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bo‘lgan narsalarga aylantirib, xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo‘ladilar. Bolalarning o‘yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan va bilish jarayonlari rivojlanishi uchun birdan-bir vositadir.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning o‘yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko‘p olimlarning diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Bu mavzuda barcha olimlar o‘z fikrlarini bildirishgan. Misol uchun:

“1933-yil “o‘yin” tushunchasining etimologik tahlilini amalga oshirilgan va uning o‘ziga xos alomatlarini tasniflashga harakat qilgan golland olimi F.Boytendeyk hisoblanadi. O‘yinning alomatlari “u yoqdan bu yoqqa harakat,ixtiyorsizlik va erkinlik, quvonch va ermaklik” ” [1]

“D.B.Elkonin maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rolli o‘yinlarning syujetiga ko‘ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi: 1) maishiy mavzu syujetiga oid o‘yinlar; 2) ishlab chiqarish syujetiga taalluqli o‘yinlar; 3) ijtimoiy-siyosiy sujetli o‘yinlar. Muallif ayrim o‘yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo‘g‘ inlariga mosligini, syujetlarmaishiydan ishlab chiqarishga qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o‘yin sujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog‘liqdir.”[2]

“A.P.Usovaning tadqiqotida ta’kidlanishicha, rolli o‘yin ishtirokchilarining safi yosh ulg‘ayishiga qarab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi: a) uch yoshli bolalar 2 -3 tadan guruhga birlashib 3 -5 daqiqa birga o‘ynay oladilar; 2) 4 -5 yoshlilar guruhi 2 -5 ishtirokchidan iborat bo‘lib, ularning hamkorlikdagi faoliyati 40-50 daqiqa davom etadi, o‘yin davomida qatnashchilar soni ortib ham boradi; 3) 6 -7 yoshli bolalarda rolli o‘yinni guruh yoki jamoa bo‘lib birga o‘ynash istagi vujudga keladi, natijada roller taqsimlanadi, o‘yinning qoidalari va shartlari tushuntiriladi”[2] Darhaqiqat, o‘yinlar maktabgacha yosh davridagi bolaning rivojlanishida asosiy omil.Bu davrda bolaning bilish jarayonlari ya’ni sezgi ,idrok ,xayol,xotira, tafakkur, shuningdek, o‘z harakat qobiliyatlarini takomillashib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilish jarayonlarini o‘yinlar bilan rivojlantirishda tarbiyachi va ota onasining ro‘li katta. Bolaning sezgisini rivojlantirishda narsalarni farqlash ranglarni ajratish kabi o‘yinlar ko‘rish sezgisini shakllantiradi.

“Rus psixologlaridan S.L. Rubinshteyn, S.N. Shabalinva M.N. Volokitinalar tajribalarining ko‘rsatishicha, bog‘cha yoshidagi bolalar aniq narsalarning shaklinigina emas, balki bu narsalarning qora rang bilan qilgan siluetlariga (andozalariga) qarab ham ularni bir-biridan farqlay oladilar. Bolalar sujetga qarab (ya’ni qora rangda ishlangan quruq shaklga qarab) bu narsalarning nima ekanligini

“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.

adashmay aytib bera oladilar. Bunda shu narsa ma’lum bo’ladiki, bog’cha yoshidagi bolalar narsalarning shakllarini ularning mazmuni bilan bog’liq ravishda idrok qila boshlaydilar.”[3]

Maktabgacha yosh davridagi bolaning diqqati shakllanishi faqatgina tarbiyachi emas, balki ota onasiga ham bog’liq. Ayrim bolalarning uyida ota onasi erkalab yuborgani tufayli diqqatini tartibga sola olmaydilar. Bolaning diqqatini rivojlantirish uchun asosan sahnalashtirilgan o’yinlar, rasmlar yordamida suhbatlar foyda beradi.

Bu yoshdagi bolalarning xotirasi ixtiyorsiz xotira bo’ladi. Asosan, bu davrdagi bola o’yin tufayli ko’p narsalarni eslab qoladi.

“Bolalar xotirasini mashq qildirishda turli mazmunli o’yinlardan, mashq va treninglardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, «Magazin-magazin» o’yini, har turli loto o’yinlari, topishmoqli o’yinlar, didaktik va maxsus xotira o’yinlari shular jumlasidandir. Umuman, bolaning ma’lumotni esda olib qolishini va qayta esga tushirishini tarbiyachi doimo boshqarib borishi zarur. Chunki bog’cha yoshida xotiraning hamma tiplari o’sa boshlaydi.”[3]

Maktabgacha yosh davridagi bolalarda tafakkur tez shakllanadi. U yangi jamoaga qo’shilishi, ko’p narsalarni qo’l bilan ushlab ko’rishi sabab bo’ladi. Bu yoshdagi bolalar narsalarni taqqoslash, bir biriga o’xshatishni o’rganishadi. Bu davrda bolaga turli misollar yordamida bajariladigan va qoidal o’yinlar tafakkur shakllanishiga yordam beradi.

Maktabgacha yosh davridagi bolalarda xayol bir xilda shakllanmaydi. Ularning xayoli ixtiyorsiz xayol hisoblanadi. Bolaning xayolini shakllantirishda ko’proq rasm chizish, plastilindan turli narsalar yasash kabi mashg’ulotlar yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki maktabgacha yosh davridagi bolalarda o’yin faoliyatiga e’tiborli bo’lishi kerak. Chunki bu davrdagi o’yinlar bolaning psixologik rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. O’yin faoliyati – faoliyatlarning ontogenezi deb atalishi ham bejizga emas. Bola o’yin orqali kelgusi faoliyatlarini tajribada sinab, bajarib ko’radi. Ota onasi birgalikda o’ynalgan o’yinlar bolaning yaxshi xislatlarini tarbiyalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo’rayeva S.N., Sharafutdinova X.G., Mamaradjabova B.A. “UMUMIY PSIXOLOGIYA” Toshkent-“Innovatsiya-Ziyo”-2022. [115-b]
2. Ergash G’oziyev. “ONTOGENEZ PSIXOLOGIYASI” Toshkent. “NIF-MSH” 2020. [105-b, 107-b]
3. Sabohat Xalilovna Jalilova, Sayyora Mirsoatovna Aripova “MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI” “Faylasuflar” nashriyoti 2017. [330-b, 341-b,]